

ZULFIYAXONIM SHE'RLARI**Ro'zimurodova Durdona Ulug'bek qizi****Toshkent Tibbiyot akademiyasi****Tibbiy biologiya fakulteti 2-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7627436>**

Annotatsiya: Zulfiya she'rlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, she'rlarining ruhi va ohangini, mazmuni va yo'nalishini, avj pardasini, maqsad, g'oya va ideallarini umuminsoniy fikr va tuyg'ular belgilaydi. Shu ma'noda, Zulfiya ijodining haroratini ta'minlagan omil ham undagi jo'shqin va faol insonparvarlik, poetik timsol, go'zal tuyg'ular olamidir. Maqolada shoira she'riyatining aynan shu jihatlari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Lirik kechinma, qahramon tabiati, mavzu ko'lami, shoira, ona, ayol, she'riyat, manzara.

Zulfiya ijodi, u yaratgan poetik asarlar hozirgi o'zbek she'riyatida muayyan ahamiyatga molikdir. Shoira Zulfiya ijodida xotin-qizlar mavzusining ko'p jihatlari teran yoritilishi, sevgi va hijron motivlarining haqqoniy badiiy tadqiq etilishi, tinchlik, xalqlar do'stligi g'oyalarining ancha tasirchan tarannum etilishi tahsinga sazovor. Ma'lumki, Zulfiya tomonidan yaratilgan asarlarida realistik tasvir tamoyillari kuchayganligi hamda poetik obrazlar olami kengayganligini ko'rsatadi. O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolaridan biri shoira o'ziga xos, betakror badiiy olamini o'rganish bo'lib, bu masalaning teran atroflicha tadqiq qilinishi yozuvchining individual mahoratini ko'rsatishga, uning adabiyotimiz taraqqiyotidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi. Zulfiyaning poetik fikrlash tarzini jiddiy o'rganish, uning asarlaridagi obraz va obrazlilikning tabiati, xarakterini yana ham to'laroq ochish o'zbek she'riyatidagi katta bir turkum asarlar mohiyatini tushunishga imkon beradi.

Dunyo yaralishida cho'g'ning sifatlari ko'p. Bittasi shuki, u doim o'z davrasiga tortadi. Jozibasi bilan jamlaydi. Yana bir siri: u chorlaydi, birlashtiradi: yer zimistonligida hayot davom etayotganligidan darak beradi. Ana endi shulardan keyin Zulfiyaning butun she'riyatida jamlash, birlashtirish, davraga chorlash g'oyasi nihoyatda kuchli jaranglaganligi tug'ma g'oya ekanligini anglatadi. Loaqal mashhur "Mushoira"ni, loaqal "Quyoshli qalam"ni, loaqal "Xotiram siniqlari"ni eslaymiz.

Baxtli damlarning qabariq yulduzlari kulib boqardi Zulfiyaga. "Bu yillarda mening hayotimga yana bir quvonch to'liqini kirdi. Bu – Hamid Olimjon edi... Hamid Olimjon mening uchun talabchan ustoz, mehrli do'st edi. She'rlarimni ilk bor hayajondan titrab unga o'qirdim. U ayovsiz tahrir etardi. Yillar o'tdi, yillarning biri bilan qo'shib Hamid Olimjon ham o'tdi... So'ng hayotimga yo'llar kirib keldi..."

Quyoshdan to'kilganman

Ushlay olaman o'tni –

deydi Zulfiya. Tug'ma g'oyalarga hayratlanmay ilojing yo'q. Bu g'oyadan u so'nggi damgacha voz kechmadi: "Sakson yil lovullab so'nmagani o'tman", dedi u oxirida.

Zulfiya she'riyati pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiya-tini g'ajib tashlay oladigan hijron to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoironing barcha ayollarga, barcha onaiarga, barcha ma'shuqalarga xos, tushunarli, anglanarli bo'lgan she'riyati aslo eskirmaydi. Uning asarlarida halol inson tuyg'ularining porloq yulduzi charaqlab turadi.

Xalq orasida "Oydinda", "Sensiz", "Yurak", "Falak", "Bahor keldi seni so'roqlab", "O'g'irlamang qalamim bir kun", "Bo'm-bo'sh qolibdi bir varaq qog'oz" kabi she'rlari, "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Mushoira" kabi she'rlari mashhur. "Uni Farhod der edilar", "Quyoshli qalam", "Xotiram siniqlari" kabi lirik va liro-epik dostonlar muallifi. 1935 yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va uning bevaqt vofotidan so'ng ko'plab mahzun she'rlar yaratgan. Pushkin, Lermontov, Nekrasov, L. Ukrainka, V. Inber va boshqa ko'plab shoirlarning asarlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Zulfiya she'riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho'qqisi bo'lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she'rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo'yoq va timsollarda gavdalanadi.

Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson qalb tug'yonlarini o'tkir bilimdoni bo'lib, turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she'rlar, hikoyalar, ocherklar, publististik maqolalar va gazeta xabarlari. Uning ko'p she'rlari SSSR xalqlari tinchligi va do'stligi sari kurashga bag'ishlangan edi. Urush yillari u vatanparvarlik she'rlarini yozgan. U tomonidan, shuningdek, o'zbek bastakorlarining operalariga librettolar ham yozilgan, masalan, "Zaynab va Omon" operasiga libretto. Shu bilan birga, turmush o'rtog'i Hamid Olimjon qalamiga mansub "Semurg" dostoni mavzusi asosida, ertak-sahna asarini ham yozgan.

Shoira Zulfiya ijodining poetik olami va estetik qarashlari ham mazkur jarayonning bir halqasini tashkil etadi. Negaki, ijodkor o'z davrining komil farzandi. O'zi yashab turgan ijodiy muhit suvratidan estetik qarashlari shakllanadi. Ustozlari boshlab bergan salmoqli ishlar, keyingi avlod nazaridan izsiz o'tmaydi. Bularni davom ettirganligi uchun bugungi adabiy jarayon o'ziga kerakli va muhim jihatlardan ibrat olishda davom etmoqda.

Shuningdek, shoira Zulfiya ijodida ayolga extirom, onaga muhabbat mavzusi alohida o'ringa ega. Zulfiya ijodining turli davrlarida bu mavzuga qayta-qayta murojaat etgan. Natijada shoironing "Ona", "Ona ko'ksi", "Mening mehribon onaginam", "Ona ko'ksi" singari she'rlari vujudga kelgan. Ona va farzand muhabbatini, ayollikning botiniy va zohiriy qiyofasini ochib beruvchi lirik kechinmalar shoira ijodida talaygina.

XULOSA. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Zulfiya lirikasi teran tafakkur va jo'shqin hissiyotdan hosil bo'lgan she'riyatdir. Shoira lirik qahramoni ko'pda yuksak intellekt sohibasi ekanligi sezilib turadi. U biroz o'ychan, ba'zan falsafiy, ba'zida esa jiddiy va ta'sirchan. Shoira ma'naviy-ruhiy izlanishlarida, poetik timsol yaratish jarayonida his-tuyg'ular manzarasi, kechinma tarangligi, o'tkir dramatik vaziyat va kolliziylar bo'rtib turadi. Unda makon va zamon chegarasining qamrovlari keng, o'tmish, bugun va kelajak voqeligi inson taqdiri, ertasi tasvirlanadi.

References:

1. Zulfiya. Adabiy o'ylar. - Toshkent: "Fan", 1985;
2. Karimov N.Zulfiya. Ma'rifiy biografik asar. - T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015
3. Zulfiya "Xotiram siniqlari" to'plami; Izlanishlarim va fikrlarim.